IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 21 Issue 2 May 2026

CHOLG‘U IJROCHILIGI FANINI O‘QITISHDAGI INNOVATSIYALAR VA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBALAR

Ikromjonova Madina Fahadjon qizi
Toshkent Davlat Xalqaro Nordic Universiteti
musiqa ta’limi yo’nalishi magistr
2-kurs talabasi
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20223139

ANNOTATSIYA:
Annotatsiya Mazkur zamonaviy ta’lim tizimida san’at va madaniyatning ahamiyatini oshirishga qaratilgan muhim tadqiqotdir. Ushbu ishda, cholg‘u ijrochiligini o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion metodlar, texnologiyalar va pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi.

Абстракт: Данное исследование является важным исследованием, направленным на повышение роли искусства и культуры в современной системе образования. В работе анализируются инноватсиенные методы, технологии и педагогические подходы, применяемые в процессе обучения исполнительскому искусству.

Abstract: This study is an important research aimed at enhancing the role of art and culture in the modern education system. The work analyzes innovative methods, technologies, and pedagogical approaches used in the process of instrumental performance education.

Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish uzluksiz ta’lim tizimining tuzilmasi va mazmunini zamonaviy fan yutuqlari va ijtimoiy tajribaga tayangan holda tub islohotlarni ko‘zda tutadi. Buning uchun, avvalo, ta’lim tizimining barcha shakldagi muassasalarida ta’lim jarayonini ilg‘or, ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan yangi va zamonaviy uslubiyat bilan amalda ta’minlash lozim. Yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishning maqsadi, vazifalari, mazmuni, uslubiy talablariga ko‘ra fan, texnika va ilg‘or texnologiya yutuqlaridan unumli foydalanish bugungi ta’lim tizimi oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ta’limning samaradorligini oshirish, shaxsning ta’lim markazida bo‘lishi va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko‘rgan va o‘z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o‘quv va tarbiyaviy mashg‘ulotlarini tashkil etishda foydalanish qoidalarini biladigan o‘qituvchilar kerak. Buning uchun barcha fan o‘qituvchilarini yangi pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish va ular egallagan bilimlarini o‘quv -tarbiyaviy mashg‘ulotlarda qo‘llash malakalarini uzluksiz oshirib borishlari lozim. Mazkur maqsadni amalga oshirishda ta’lim mazmuni va o‘qitish uslubiyotini takomillashtirishda musiqa ta’limining milliy, an’anaviy va hozirgi zamon yutuqlariga hamda ilg‘or tajribalarga ijodiy tayanish maqsadga muvofiqdir. Barkamol avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor berish, ularni musiqiy merosimizga hurmat hissini muhabbatga, qiziqishga, mehrga aylantirish musiqiy ta’lim oldida turgan asosiy vazifalardan biridir.

Musiqa jamiyat hayotining muhim qismidir. U inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lib, ularning his-tuyg‘ularini o‘ziga xos badiiy tilda ifoda etadi. Bir so‘z bilan aytganda musiqa san’ati hayotni o‘rgatadi, tasvirlaydi va ifodalaydi. Shu bois musiqa umumiy o‘rta ta’lim boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida estetik g‘oyalarni tarbiyalash orqali ularning ma’naviy va ahloqiy dunyosini har tomonlama takomillashtirishda, ularda olijanob fazilatlarini shakllantirishda ta’sirchan vosita bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarning hayot

tajribasi, aql idrokini o‘stirib borishida Vatan tuyg‘usi kundalik odatdan e’tiqodga aylana boshlaydi.

Magistrlik dissertatsiyanig asosiy maqsad**i -** boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirish orqali o‘zbek xalq musiqasiga qiziqish uyg‘otish, mavzuni o‘zlashtirish, milliy cholg‘ular bilan tanishtirish, metodik uslublarini aniqlash, milliy dunyoqarashni tarbiyalashdan iboratdir.

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirishga oid hamda cholg‘u ijrochiligi turlari va ularning tarixi bo‘yicha ilmiy va o‘quv adabiyotlarni o‘rganib chiqish;

boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tarbiyasida cholg‘u musiqa san’atining o‘rni, o‘zbek xalqining musiqa madaniyati hamda o‘zbek xalq milliy cholg‘ularini tasnifotini izohlash;

Boshlang‘ich sinf o‘quvuchilari faoliyatida cholg‘u ijrochiligi tarbiyasining ahamiyati, musiqa madaniyati darslarida o‘quvchilarni milliy cholg‘ular bilan tanishtirish usul va metodlarini qo‘llash, shuningdek, tajriba-sinov ishlari asosida asoslash.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirish borasida o‘zbek cholg‘u musiqa merosida qo‘llangiladigan bir qator atamalardan foydalanildi. Jumladan, cholg‘u, ijrochilik, tanbur, dutor, g‘ijjak, doyra, nay, qashqar rubobi, qashqar rubobi, tor, akkardion, surnay, karnay, milliy cholg‘u, xalq cholg‘ulari, o‘zbek xalq musiqa ijodi bilan bog‘liq cholg‘ular, sibiziq, chanqobuz, dap, do‘mbira, qobuz, sinf, boshlang‘ich ta’lim, mumiqa madaniyati fani, dasturi, darslik, davlat ta’lim standarti, sinf, sinfdan tashqari ta’lim, milliy musiqa, san’at, kasb, qiziqish, motivatsiya, bog‘lanish, o‘zlashtirish, ijro etish, gaplashish, guruhli, kichik guruh, katta guruh, qadriyat, an’ana, marosim, erkin ijro etiladigan cholg‘u kuylari, mavsumiy marosimda ijro etiladigan cholg‘u kuylari, diniy marosim cholg‘ulari.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘zbek milliy cholg‘ularini ijrosini o‘rganishda bir qator usul va uslublar orqali mavzuni o‘zlashtirish, kuy tinglash va uni tahlil qilish yo‘llari jarayonida xalq cholg‘u ijrolaridan va o‘zbek cholg‘u ijrochiligida yaratilgan cholg‘u asarlaridan foydalanishga yo‘naltirilgan faoliyat mazmuni, dars ishlanmasa takomillashtirilsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirishda samarali usullardan foydalanish yaxshi natija beradi.

Tadqiqot metodlari:

1. *Teoretik tahlil usuli:*

O‘zbek va Afg‘on folkloriga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar, dostonlar, ertaklar, afsonalar hamda xalq og‘zaki ijodiy merosini tahlil qilish orqali liderlik fazilatlarining folklordagi aksini o‘rganish.

Liderlik nazariyalari, psixologik va pedagogik yondashuvlar bo‘yicha mavjud konsepsiyalarni o‘rganish.

2. *Komparativ (taqqoslama) tahlil:*

O‘zbek va Afg‘on folkloridagi lider obrazlari, qadriyatlar va tarbiyaviy motivlarning o‘xshash va farqli jihatlarini taqqoslash.

3. Empirik metodlar:

So‘rovnoma va intervyular: Yoshlar, pedagoglar va folklorshunoslar o‘rtasida so‘rovnomalar o‘tkazish orqali folklorning yoshlar dunyoqarashiga ta’sirini aniqlash.

Kuzatuv: Ta’lim muassasalarida o‘tkazilgan darslar yoki mashg‘ulotlarda yoshlarning liderlik harakatlarini kuzatish va baholash.

4. Eksperimental metod:

Tajriba-sinov ishlari asosida folklorga asoslangan maxsus trening, suhbat, muhokama, rolli o‘yinlar kabi mashg‘ulotlar tashkil etilib, yoshlarning liderlik ko‘nikmalaridagi o‘zgarishlarni baholash.

5.*Statistik tahlil usullari:*

Olingan ma’lumotlarni tahlil qilish, ularni jadval va diagrammalar orqali ko‘rsatish, eksperiment natijalarini ilmiy asosda isbotlash uchun statistik metodlardan foydalanish.

Mazkur tadqiqot boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirish orqali yoshlar shaxsini tarbiyalashga oid nazariy qarashlarni boyitadi. Shuningdek, mavzuning dolzarbligi, masalaning ishlanganligi darajasi, mavzuning maqsad va vazifalari, nazariy asoslari, ishning tuzilishi va ilmiy ahamiyati va yangiligi yoritib berilgan hamda mavzuga ijodiyo yondashilgan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarining shakllanishi bo‘yicha yangi ilmiy-nazariy asoslar yaratilgan. Tadqiqot natijalari milliy cholg‘ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining shaxsiy rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish bilan bog‘liq fundamental tadqiqotlar uchun ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan o‘quv-metodik materiallar, trening dasturlari va tavsiyalar ishlab chiqilishi mumkin.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasasidagi boshlang‘ich birinchi sinf, ikkinchi sinf, uchinchi sinf va to‘rtinchi sinf o‘quvchilarininrg yoshini e’tiborga olgan holda ularda milliy cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha qo‘shimcha mashg‘ulotlar yoki to‘garaklar tashkil etish uchun asos bo‘ladi.

boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirishda o‘quvchilar o‘rtasidagi musiqiy aloqalarni mustahkamlashga, tinglash, cholg‘uda ijro etish, cholg‘u ijrochiligiga jo‘r bo‘lishda ularning bir-birini yanada yaxshiroq tushunishiga xizmat qiluvchi tarbiyaviy dasturlar ishlab chiqilishi mumkin.

Tadqiqot natijalari folklorshunoslik, pedagogika, madaniyatshunoslik, psixologiya va sotsiologiya fanlari kesishmasida amaliy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida cholg‘u ijrochiligi ko‘nikmalarini shakllantirishda inson tarbiyasida musiqa san’atining roli, o‘zbek xalqining musiqa madaniyati, o‘zbek xalq milliy cholg‘ulari mazmuni; boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini milliy ruhida tarbiyalashda cholg‘ulardan foydalanish uslublari, milliy cholg‘ularning boshlang‘ich sinf o‘quvchisi tarbiyasidagi ahamiyati, musiqa madaniyati darslarida milliy cholg‘ular bilan tanishtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini bolalar musiqiy cholg‘ularidagi ijrochilik faoliyati keng yoritish, milliy cholg‘ularni darsda qo‘llashning tajriba sinov ishlari asosida tekshirish, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining milliy ruhida tarbiyalashda milliy cholg‘ularning ahamiyati, amaliyot davomida olib borilgan ishlar, tajriba sinov ishlari natijalarini amaliyotga tadbiq etish, milliy cholg‘ular musiqasi orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda milliy ruhini shakllantirishni yanada kuchaytirish yo‘llari va qolaversa, o‘quvchi yoshlarni tarbiyalashda milliy cholg‘ulardan foydalanish bo‘yicha amaliy usullardan keng foydalanilgan

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Pezidenti Sh.M. Mirziyoyev, "2017-2021 yillarda O‘zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha xarakatlar strategiyasi” ning “Ta’lim va fan sohasini rivojlantirish" bandi, O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Barkamol avlod orzusi”, “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kabi ma’naviy merosini o‘rganishga, ta’lim-tarbiya sohasiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” gi qonuni, umumiy o‘rta ta’lim maktablari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan me’yoriy hujjat (musiqa madaniyati fani DTS, o‘quv reja, dasturi, Boshlang‘ich ta’lim DTS, o‘quv reja, o‘quv dasturi, darslik)lar, o‘quv majmualar, mavzuga oid ilmiy – pedagogik, metodik manbalarga hamda tadqiqot quyidagi ilmiy-nazariy yondashuvlarga va konsepsiyalarga tayangan:

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. https://lex.uz/uz/docs/-6445145.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.09.2018-yildagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-3931-son qarori https://lex.uz/docs/3893416
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.04.2019-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-son farmoni. https://lex.uz/docs/4312785
4. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.“Maktabgacha ta’lim-tarbiya to‘g‘risida”gi 2019-yil 16-dekabrdagi O‘RQ-595-son. https://lex.uz/docs/-4646908
5. O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining 2020-yil 13-oktyabrdagi “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4860-son Qarori. https://lex.uz/docs/5044711